

**Kreditning to'liq
qiymati - ___% (foiz
yozuv bilan)**

KREDIT SHARTNOMASI № _____ - _____

_____ sh.

_____ 20__ y.

«Tenge Bank» Aksiyadorlik tijorat banki (keyingi o'rinlarda –“Bank” deb ataluvchi) nomidan _____ yil « _____ » _____ da berilgan _____ –sonli ishonchnoma asosida harakat qiluvchi _____ bir tomondan, va fuqaro _____ (keyingi o'rinlarda – “Qarz oluvchi” deb ataluvchi) ikkinchi tomondan hamda fuqaro _____ keyingi o'rinlarda – (“Birgalikda qarz oluvchi” deb ataluvchi) uchinchi tomondan, birgalikda “Taraflar” deb ataluvchilar ushbu Kredit shartnomasini (keyingi o'rinlarda – “Shartnoma” deb ataluvchi) quyidagilar haqida tuzdilar.

1. ASOSIY TUSHUNCHALAR

- 1.1.** Ushbu shartnoma matnida keltirilgan barcha atamalar, agar kontekstdan boshqacha mazmun anglashilmasa, ushbu bo'limda keltirilgan ta'riflarga ega:
- 1.1.1. **Avtokredit**–jismoniy shaxsga uning iste'mol ehtiyojlarini qondirish uchun bank tomonidan to'lovlilik, muddatlilik, maqsadlilik, qaytarishlilik va ta'minlanganlik shartlarida birlamchi bozorda avtotransport vositasini sotib olish uchun taqdim etiladigan iste'mol krediti;
- 1.1.2. **Kredit ob'ekti**–O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan, kredit hisobiga sotib olinadigan tegishli markadagi avtotransport vositasi;
- 1.1.3. **Dastlabki badal**– pul mablag'lari, shu jumladan qarz oluvchi tomonidan Bankdagi hisob raqamiga kiritilgan va etkazib berish shartnomasi bo'yicha sotib olinadigan transport vositasi uchun qisman to'lov hisoblanadigan mablag'lar;
- 1.1.4. **Qarz oluvchi**–bank bilan tuzilgan kredit shartnomasi doirasida avtotransport vositasini (avtomobilni) sotib olish uchun iste'mol kreditini olgan jismoniy shaxs;
- 1.1.5. Birgalikda qarz oluvchi**- qarz oluvchining turmush o'rtog'i, qarz oluvchining yaqin qarindoshlari (ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari, farzandlari) va qarz oluvchi bilan birgalikda Bank oldidagi majburiyatlari uchun javob beradigan to'lov qobiliyati bo'yicha malakadan o'tgan boshqa shaxslar;
- 1.1.6. **To'lov qobiliyati**-qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchining umumiy daromadlarni tahlil qilishdan kelib chiqqan holda aniqlangan kredit shartnomasi bo'yicha to'lov majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish qobiliyati;
- 1.1.7. **To'lov majburiyatlari**-qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchining kredit shartnomasi bo'yicha qarzini, uning foizini mazkur shartnomada va boshqa to'lovlarda(avtokreditni rasmiylashtirish xarajatlari) ko'rsatilgan summa va muddatlarda to'lash majburiyati;
- 1.1.8. **Sotuvchi / diler**-avtotransport vositasini shu jumladan kredit mablag'lari hisobiga sotib olinadigan avtotransport vositasini sotadigan yuridik shaxs (avtosalon);
- 1.1.9. **Kredit ta'minoti**-kreditga olingan avtotransport vositasi, qo'shimcha ta'minot sifatida boshqa mol-mulk va sug'urta polisi;
- 1.1.10. **Kredit taqdim etilgan sana**-bank tomonidan qarz oluvchining kredit hisobvarag'idan iste'mol tovarlari/xizmatlarini sotadigan ishlab chiqaruvchi korxonaga yoki tashkilotning bank hisobiga pul o'tkazish sanasi.

2. SHARTNOMA MAZMUNI

2.1. Bank Qarz oluvchiga O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan avtotransport vositasini (bundan buyon matnda «Avtomobil»deb yuritiladi) sotib olish maqsadida iste'mol kreditini (bundan buyon matnda «Kredit» deb yuritiladi) taqdim etadi, qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchi Bankka, olingan kreditni qaytarish va ushbu shartnoma shartlarida kreditdan foydalanganlik uchun foizlarva boshqa to'lovlarni to'lash majburiyatini oladi.

3. KREDIT TAQDIM ETISH SHARTLARI

3.1. Kredit quyidagi shartlarda taqdim etiladi:

3.1.1. Avtomobilning umumiy qiymati _____ (yozuv bilan _____ sum _____ tiyin) sum;

3.1.2. Kredit summasi: _____ (yozuv bilan _____ sum _____ tiyin) sum;

Bank

Qarz oluvchi _____

Birgalikda qarz oluvchi _____

- 3.1.3. Dastlabki badal-avtotransport vositasi summasidan %, bu _____ tashkil qiladi (yozuv bilan _____ sum _____ tiyin) sum;
- 3.1.4. Kredit maqsadi va ob'ekti: - _____ markadagi avtomobilni sotib olish, kuzov rangi _____, _____ da ishlab chiqarilgan, Sotuvchi/Diler bilan tuzilgan yetkazib berish shartnomasiga muvofiq;
- 3.1.5. Kreditlash muddati: _____ oy;
- 3.1.6. Kreditning oxirgi qismini to'lash sanasi: _____ y. gacha (shu kuni ham kiradi).
- 3.1.7. Kredit qarzining qaytarilish jadvalini hisoblash usuli: _____ to'lovlar orqali.

3.2. Kredit bo'yicha to'lovlar:

3.2.1. Foiz stavkalari:

- a) asosiy qarz qoldig'i uchun: -yillik _____ %;
- b) muddati o'tgan asosiy qarz uchun: -yillik _____ % (oshgan foiz).

3.3. Qarz oluvchi tomonidan olingan kredit hisobini yuritish uchun bank Qarz oluvchiga tegishli hisobvaraqlarni ochadi.

3.4. Kredit mablag'lari ushbu shartnoma tuzilgandan so'ng va belgilangan tartibda to'liq rasmiylashtirilgandan so'ng hamda Bank tomonidan ushbu shartnomaning 5-bo'limiga muvofiq, qaytarish, to'lov qobiliyati, to'lov kafolatlarining ishonchligi va ushbu shartnoma bo'yicha boshqa shartlarning bajarilishini aniqlaydigan hujjat(lar) olingandan keyin 3 (uch) ish kuni mobaynida Sotuvchi/Diler hisob raqamiga o'tkaziladi.

3.5. Kredit qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchining bankda ochilgan kredit hisobvarag'idan, sotuvchining/dilerning hisobvarag'iga pul o'tkazish sanasidan boshlab berilgan hisoblanadi va qarz oluvchi tomonidan bankka qarz miqdori va kredit bo'yicha barcha turdagi hisoblangan foizlar qaytarilgan kundan boshlab qaytarilgan deb hisoblanadi.

3.6. Kreditdan foydalanganlik uchun foizlar kredit berilgan kundan boshlab, kredit qarzining ish kuni oxiridagi qoldig'i va har oydagi haqiqiy kunlar soni bo'yicha, kredit to'liq so'ndirilgunga qadar har kuni hisoblab chiqiladi.

4. KREDITNI QAYTARISH SHARTLARI

4.1. Qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchi tomonidan oylik to'lovlarni to'lash, shu jumladan hisoblangan foizlar summasi, asosiy qarzning qismlari va ushbu shartnomaga muvofiq boshqa to'lovlar qarz oluvchi/birgalida qarz oluvchi yoki uning vakolatli vakili tomonidan Bankning istalgan ofisida, shuningdek, mobil ilovalar, to'lov terminallari (infokiosklar), to'lov tizimlari (Click, Payme va boshqalar) orqali, bank o'tkazmasini amalga oshirish yo'li bilan, bank yoki boshqa banklarning kassalari orqali, yoxud Qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchining Bankda ochilgan barcha hisobvaraqlaridan tegishli summani echib olish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.

4.2. Kredit bo'yicha foizlar har kuni asosiy qarz qoldig'i bo'yicha hisoblanadi. Foizlarni hisoblash uchun yiliga 365 kunga asoslangan usul ishlatiladi. Qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchi hisoblangan foizlar vakredit bo'yicha asosiy qarz summasini ushbu shartnomaning 1-ilovasi bo'lgan Kreditni qaytarish jadvaliga muvofiq ko'rsatilgan miqdor va muddatlarda har oyning 15-sanasidan kechiktirmay to'lash majburiyatini oladi. Shu bilan birga, 1-ilovada keltirilgan Kreditni to'lash jadvalidako'rsatilgan kredit uchun hisoblangan foizlarning oylik miqdori yakuniy emas va u kredit berilgan haqiqiy sanasiga, asosiy qarzni muddatidan oldin to'lash yoki qisman qaytarish miqdoriga, dam olish kunlari / ishlamaydigan va bayram kunlariga bog'liq bo'ladi.

4.3. Kredit shartnomasi bo'yicha qarzlarning qisman muddatidan oldin to'lanishi qarz oluvchining kredit shartnomasi bo'yicha to'lovlar miqdorining, to'lovlar miqdorini aniqlash tartibining va muddatlari davriyligining o'zgarishiga sabab bo'lmaydi.

4.4. Ushbu shartnoma bo'yicha qarzni qisman muddatidan oldin qaytarilganida, asosiy qarzning

Bank

Qarz oluvchi _____

Birgalikda qarz oluvchi _____

qolgan qismidan qisman muddatidan oldin to'langan summa chegirib tashlanadi, bunda oylik to'lov asosiy qarz bo'yicha qisman to'lov summasiga kamayadi, foizlar 4.2-bandga muvofiq hisoblab chiqiladi. va kredit berilgan muddat o'zgarmaydi.

4.5. Agar ushbu shartnomaning 1-ilovasi bo'lgan Kreditni qaytarish jadvalida nazarda tutilgan asosiy qarz va hisoblangan foizlarni (yoki uning bir qismini) so'ndirish sanasi bank ish kuniga to'g'ri kelmasa, to'lov ish kuni bo'lmagan kundan keyingi birinchi ish kuniga ko'chiriladi, oylik to'lov miqdori va ishlamaydigan kunlar miqdori bo'yicha amalga oshiriladi.

4.6. Agar qarz oluvchi ushbu shartnomaning 1-ilovasida ko'rsatilgan sanalarda kredit bo'yicha asosiy qarzni qaytarmasa, qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchi muddati o'tgan qarzning har bir kuni uchun bank foizini 3.2.1.-bandga muvofiq oshirilgan stavka bo'yicha to'laydi.

4.7. Qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchining tegishli hisobvaraqlarida qarzdorning qarzini uzish uchun to'lanishi zarur bo'lgan summa: kredit bo'yicha asosiy qarzi va hisoblangan foizlar miqdoridagi mablag' mavjud bo'lmaganda: to'lash, yetarli bo'lmagan mablag'lar summasi muddati o'tgan hisoblanadi.

4.8. Qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchining majburiyatlari kreditning butun summasini bankka qaytargandan so'ng, kreditdan foydalanganlik uchun foizlar, kreditni o'z vaqtida to'lamaganligi uchun kechiktirilgan foizlar, kreditni qaytarish sanasi bo'yicha belgilanadigan ushbu shartnoma shartlariga muvofiq jarimalar va qarzni undirish bilan bog'liq xarajatlar qoplanganidan keyin tegishli va to'liq bajarilgan deb hisoblanadi.

4.9. Kreditni qaytarish hisobiga tushgan yoki qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchining bankdagi har qanday hisobvarag'ida mavjud bo'lgan pul mablag'lari quyidagi navbatga muvofiq yuboriladi yoki qarznito'lash uchun hisobga olinadi:

- muddati o'tgan foizlar (hisoblangan, lekin qaytarilishi kerak bo'lgan kunda to'lanmagan);
- muddati o'tgan asosiy qarz bo'yicha hisoblangan foizlar;
- muddati o'tgan asosiy qarz;
- hisoblangan, lekin kredit bo'yicha muddati o'tmagan foizlar;
- kredit bo'yicha asosiy qarz;
- bankning qarz oluvchining qarzini undirish bilan bog'liq xarajatlari.

5. KREDIT QAYTARILISHINING TA'MINOTI

5.1. Ushbu shartnoma bo'yicha taqdim etilgan kredit quyidagicha ta'minlanadi:

5.1.1. asosiy ta'minot - 3.1.4.-bandga muvofiq sotib olinadigan avtomobil;

5.1.2. kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini vaqtincha ta'minlash – _____ (yozuv bilan _____ sum _____ tiyin) sumga asosiy qarz va hisoblangan foizlar qaytmasligi xavfidan 12 oy muddatga sug'urta polisi.

5.1.3. Asosiy ta'minot bo'yicha majburiyatlarni bajarish - qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchi tomonidan shu jumladan kredit hisobiga sotib olinadigan avtotransport vositasini (keyingi o'rinlarda "Garov predmeti" deb ataluvchi) garovga qo'yish hisoblanadi. Garov predmeti _____ (yozuv bilan sum tiyin) miqdoridagi kelishilgan garov qiymati bo'yicha qabul qilinadi, bu kredit summasining kamida _____% ni tashkil qiladi. Garovning aniq shartlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq rasmiylashtirilgan Garov predmetining Garov shartnomasida belgilanadi. Qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchi sug'urta kompaniyasi orqali "Garov predmeti" ni sug'urtalashga va mazkur shartnomaning butun amal qilish muddati uchun ushbu sug'urtani ta'minlashga majburdir. Sug'urta hodisasi yuz berganda naf oluvchi Bank hisoblanadi. Garov predmeti qiymatini kelishishning tegishli tarzda rasmiylashtirilgan dalolatnomasi, sug'urta polisi va Garov predmetining tegishli rasmiylashtirilgan Garov shartnomasi qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchi tomonidan transport vositasi DYHXX organlarida ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kun mobaynida bankka taqdim etilishi kerak.

5.1.4. Vaqtinchalik ta'minot bo'yicha majburiyatlarni bajarish - kreditni to'lamaslik xavfi tegishli tarzda va muddat bilan rasmiylashtirilgan «_____» MCHJ krediti to'lanmasligi xavfidan _____ (yozuv bilan _____ sum _____ tiyin)

Bank

Qarz oluvchi _____

Birgalikda qarz oluvchi _____

miqdoridagi sug'urta polisi hisoblanadi, kredit summasining kamida _____% ni tashkil qiladi.

5.2. Ushbu shartnoma bo'yicha kreditning qaytarilishini ta'minlashning aniq shartlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tuzilgan alohida shartnomalar doirasida tartibga solinadi. Shu bilan birga notarial tasdiqlashni va/yoki davlat ro'yxatidan o'tkazishni talab qiluvchi shartnomalar ularning notarial tasdiqlanishi va/yoki davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytidan boshlab tuzilgan hisoblanadi.

5.3. Agar Bank sug'urta mukofotini bank hisobidan to'lasa, Qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchi 3 bank kuni mobaynidasug'urta mukofoti summasini Bankka to'lab berish majburiyatini oladi.

5.4. Qarz oluvchi/ birgalikda qarz oluvchi kreditning qaytarilishini ta'minlash uchun hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirish bo'yicha har qanday xarajatlarni o'z zimmasiga oladi.

5.5. Qarz oluvchi/ birgalikda qarz oluvchining majburiyatlarini bajarish uchun bir qancha ta'minotlarning mavjudligi bir-birini inkor etmaydi, majburiyatlarni bajarishning har bir usuli mustaqil va bir-biriga bog'liq emas. Agar majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash usullariga undiruvni qaratish zarur bo'lsa, tanlov huquqi bankda qoladi, u o'z ixtiyori bilan majburiyatlarni bajarishning har qanday usuli yoki barcha usullari uchun talablarni taqdim etishi mumkin. Qarz oluvchi/ birgalikda qarz oluvchi kredit summasining kamida

_____ % darajasida kredit ta'minoti majburiyatini oladi. Bank quyidagi hollarda bankni qanoatlantiruvchi qo'shimcha ta'minotni talab qilishga haqli:

- qarz oluvchining moliyaviy ahvoli yomonlashganida;
- likvidlik, qadr va qiymat yo'qolganida;
- bozor narxi sezilarli darajada pasayganida;
- shartnoma asosida taqdim etilayotgan kredit ta'minoti qisman yoki to'liq yuqotilganda, narxi tushganda;
- qarzdorning ushbu shartnoma majburiyatlarini bajarmasligi xavfini orttiruvchi boshqa omillarning yuzaga kelishi.

5.6. Agar qarz oluvchi/ birgalikda qarz oluvchi ushbu shartnomaning 5.1-bandi shartlarini bajarmagan va ushbu shartnomada belgilangan sanaga qadar kredit bo'yicha asosiy mablag'ning, uning foizi va/yoki ushbu shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan boshqa to'lovlarni to'lash bo'yicha hech qanday to'lovlarni amalga oshira olmaydigan holat yuzaga kelsa, O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq Bank shartsiz va shubhasiz undiruvni garov predmetiga va/yoki 5.1- badda ko'rsatilgan krediti to'lanmasligi xavfidan sug'urta polisiga qaratish va taqdim etilgan kreditni muddatidan oldin undirib olish huquqini qo'lga kiritadi.

5.7. Ushbu shartnoma bo'yicha kreditning qaytarilishini ta'minlashning aniq shartlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq rasmiylashtirilgan alohida Garov shartnomasi doirasida tartibga solinadi.

5.8. Undiruvni Garov predmetiga (predmetlariga) va/yoki uning (ularning) qism(lar)iga qaratishda bank bir tomonlama tartibda undirishning birinchi navbatdagi ob'ektini o'z xohishiga ko'ra tanlash huquqini o'zida saqlab qoladi, yoki bir vaqtning o'zida undiruvni garov predmetiga (predmetlariga) qaratish huquqini o'zida saqlab qoladi. Undiruvni Garov predmetiga (predmetlariga) va/yoki uning (ularning) qism(lar)iga qaratish Bankni undiruvni garov predmetining boshqa ob'ektiga (ob'ektlariga) va/yoki uning (ularning) qism(lar)iga qaratishdan cheklamaydi. Qarz oluvchi/ birgalikda qarz oluvchining sug'urtalovchidan qarzini undirish tartibi tegishli sug'urta shartnomasida belgilanadi.

6. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1. Bank quyidagilarga haqli:

6.1.1. Qarz oluvchi kreditning qaytarilishini ta'minlash bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda unga to'liq yoki qisman kredit berishni rad etish;

6.1.2. Ushbu shartnomaning amal qilish muddati davomida tegishli monitoringni amalga oshirish: qarz oluvchi/ birgalikda qarz oluvchining to'lov qobiliyatini uning daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlar asosida tekshirish, ta'minot xavfsizligi, kreditdan foydalanishni, taqdim etilgan

Bank

Qarz oluvchi _____

Birgalikda qarz oluvchi _____

ta'minotning saqlanishi, sug'urtalanishi, yetarliligi va likvidligini tekshirish. Bunday tekshiruvlarning davriyligi bank tomonidan belgilanadi;

6.1.3. Bank quyidagi hollarda qarz oluvchi/ birgalikda qarz oluvchidan kreditni muddatidan oldin to'lashni (hisoblangan foizlarni hisobga olgan holda) talab qilish va bundan keyin kredit berishni to'xtatish huquqiga ega:

a) ushbu shartnoma bo'yicha qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlarning buzilishi va/yoki bajarilmasligi va/yoki lozim darajada bajarilmasligi;

b) qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchi kredit mablag'laridan boshqa maqsadlarda foydalansa (maqsadga muvofiq foydalanilmaslik);

d) qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchi kredit berish to'g'risida qaror qabul qilish uchun muhim bo'lgan masalalar bo'yicha bankka noto'g'ri yoki to'liq bo'lmagan ma'lumotlarni taqdim etgan bo'lsa;

e) kredit qaytarilishining ta'minoti yo'qotilganida yoki qiymati pasayganida;

f) qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchining Bank xodimlari tomonidan ushbu shartnomaning 6.1.2-bandida ko'rsatilgan tegishli monitoring va bank nazoratini o'tkazishidan bo'yin tovlaganida;

g) ushbu shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan asosiy qarz, foiz, komissiyalar va/yoki kredit bo'yicha boshqa to'lovlarni o'z vaqtida to'lamaslik;

h) transport vositasi O'zbekiston Respublikasi IIV DYHXX organlarida ro'yxatdan o'tkazilib, egalik huquqini tasdiqlovchi hujjatlar va davlat raqami olingan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kuni mobaynida garov shartnomasini rasmiylashtirmaslik;

i) Qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchi asosiy qarzni uzish, foizlarni to'lash bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan va/yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, to'lov muddatlari kelganda bank Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga muvofiq qarzdor/birgalikda qarz oluvchining ko'rsatmasisiz (akseptsiz tartibda) zarur mablag'larni echib olish huquqini o'zida saqlab qoladi. Ushbu orqali Qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchi Bankka ushbu shartnoma bo'yicha undan undirilishi kerak bo'lgan tegishli summani Qarz oluvchi/ birgalikda qarz oluvchining barcha hisobvaraqlaridan uning ko'rsatmasisiz akseptsiz tartibda echib olish bo'yicha shartsiz va shubhasizhuquq beradi;

j) ushbu shartnomada va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

6.1.4. Bank talablari bajarilmagan taqdirda, ushbu shartnomaning 6.1.3-bandiga muvofiq, Bank ushbu shartnoma shartlariga binoan undiruvni kreditni qaytarish ta'minotiga va qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchining boshqa mol-mulkiga qaratish huquqiga ega bo'ladi.

6.1.5. Kredit byurosida va garov reestriga ushbu shartnoma shartlari va kreditning qaytarilishini ta'minlash hamda qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchining ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlari bajarilishi haqida ma'lumot taqdim etish.

6.1.6. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lanishi kerak bo'lgan summalarni qarz oluvchi/ birgalikda qarz oluvchining barcha hisobvaraqlaridan, bankdagi plastik kartalaridan va boshqa banklardagi bank hisob raqamlaridan, shuningdek qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchining har qanday valyuta hisobvarag'idan yechib olinadigan sanada Markaziy bank valyutasini sotish kursi bo'yicha konvertatsiya qilingan holda akseptsiz tartibda echib olish.

6.1.7. Agar Qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchi ushbu shartnomaning 5- bo'limida ko'rsatilgan ta'minotni ushbu shartnoma tuzilgan paytdan boshlab 15 kalendar kuni mobaynida taqdim etmasa, qarzdornishartnomani bekor qilish kutilayotgan sanadan 5 kun oldin xabardor qilgan holda ushbu shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish.

6.1.8. kredit to'lovlari bo'yicha 90 kundan ortiq muddati o'tgan qarzlar yuzaga kelgan taqdirda, belgilangan tartibda chora ko'rish uchun yo'l harakati xavfsizligi xizmatiga murojaat qilish, shu jumladan avtomobilni ushlab va uni jarima maydonchasiga evakuatsiya qilishni so'rash.

6.1.9. Qarz oluvchi tomonidan ushbu shartnomada ko'rsatilgan manzillar/telefon raqamlariga pochta jo'natmalari, elektron aloqa vositalari, SMS –xabarlar yo'llash orqali yoki boshqacha tarzda qarzdorga ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish/bajarmaslik to'g'risidagi ma'lumotlarni, ushbu shartnoma bilan bog'liq boshqa ma'lumotlarni, shuningdek, axborot,

Bank

Qarz oluvchi _____

Birgalikda qarz oluvchi _____

reklama materiallarini va tijorat takliflarini yo'llash. Qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchi yuborilgan yozishmalarning uchinchi shaxslarning qo'liga tushib qolishi bilan bog'liq barcha xavfni o'z zimmasiga oladi

6.2. Bank majburiyatlari:

6.2.1. Qarz oluvchiga ushbu shartnomaning 5- bo'limida belgilangan kreditni rasmiylashtirish bo'yicha majburiyatlar bajarilgan paytdan e'tiboran ushbu shartnomada nazarda tutilgan shartlar va tartibda kredit berish;

6.2.2. qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchi tomonidan kreditni to'liq qoplagandan so'ng:

-qarz oluvchining iltimosiga binoan, garov ta'minoti uchun taqiqni olib tashlash bo'yicha tegishli organlarga ma'lumotnomalartaqdim etish.

-garovga qo'yilgan mol-mulkka bo'lgan bank huquqlarini Garov reyestridan o'chirish bo'yicha choralar ko'rish.

6.2.3. Qarz oluvchi/ birgalikda qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnomaga muvofiq qarz (qarz) miqdorini to'lash bo'yicha majburiyatlar to'liq bajarilgandan so'ng, qarz oluvchi birgalikda qarz oluvchining yozma yoki og'zaki so'rovi bo'yicha tegishli organlarga qarz majburiyatlarining bajarilishi to'g'risida xat taqdim etiladi.

6.3. Qarz oluvchi quyidagilarga haqli:

6.3.1. ushbu shartnomada nazarda tutilgan miqdorlar, muddatlar va shartlarda kredit berilishini talab qilish;

6.3.2. shartnoma tuzilgandan so'ng, kredit mablag'lari berilishidan oldin, shartnoma tuzilgan kundan boshlab 2 hafta ichida, bankni yozma ravishda xabardor qilish orqali kreditni olishni bepul rad etish.

6.3.3. zarurat tug'ilganda, kredit mablag'lari hisobidan sotib olingan avtotransport vositasiga transport vositalariga GBU o'rnatish bo'yicha tegishli sertifikatga ega bo'lgan vakolatli dilerdan GBU (Gaz ballon uskunalari) o'rnatish.

Bunda, transport vositasi O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligining Davlat Yo'l Harakati Xavfsizligi Inspeksiyasida qayta ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng, Qarz oluvchi Bankga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar bilan avtotransport texnik pasportini taqdim etishi shart.

6.4. Qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchi quyidagilarga haqli:

6.4.1. bo'lajak va muddati o'tgan to'lovlar haqida xabar berish uchun bankning elektron xizmatlaridan foydalanish:

6.4.2. kreditdan foydalanish holati haqida ma'lumot olish;

6.4.3. kredit bo'yicha qarzni to'liq yoki qisman muddatidan oldin to'lash, bunda bank amaldagi to'lov jadvalini 1-ilovaga muvofiq, 4-bo'limga muvofiq qayta hisoblashni amalga oshirishga majbur emas:

6.4.4. ushbu shartnoma bo'yicha garov sifatida taqdim etiladigan mol-mulkni baholash kompaniyasini, shuningdek uni sug'urtalash uchun sug'urta kompaniyasini o'z ixtiyori bilan mustaqil tanlash:

6.4.5. kreditni qaytarish uchun mablag'larni mobil ilovalar, to'lov terminallari (infokiosklar), to'lov tizimlari (Click, Payme va boshqalar) orqali, bank o'tkazmasini amalga oshirish yo'li bilan bank yoki boshqa banklar kassasi orqali yo'naltirish:

6.4.6. shartnoma tuzilgandan so'ng, kredit mablag'lari berilishidan oldin, shartnoma tuzilgan kundan boshlab 2 hafta ichida, bankni yozma ravishda xabardor qilish orqali kreditni olishni bepul rad etish.

6.5. Qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchining majburiyatlari

6.5.1. ushbu shartnoma shartlarida ko'zda tutilgan to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish;

6.5.2. ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlovchi shartnoma (lar) da nazarda tutilgan majburiyatlarni tegishli bajarish. Ta'minot yo'qotilganda yoki bozor qiymati kamayganda Qarz oluvchi unga teng bo'lgan ta'minotni taqdim etish yoki tiklash majburiyatini oladi;

6.5.3. 5 kalendar kuni mobaynida qarzni to'lash: barcha muddati o'tgan foizlar summasi, muddati o'tgan asosiy qarz miqdori, shuningdek, bankdan ushbu shartnoma shartlariga muvofiq

Bank

Qarz oluvchi _____

Birgalikda qarz oluvchi _____

kechiktirilgan to'lovlar to'g'risida xabarnoma/talablar olingan taqdirda bankning boshqa komissiyalarini to'lash;

6.5.4. yashash joyi, ish joyi, familiyasi yoki ismi-sharifi o'zgarishi yoki qarz oluvchining ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan boshqa holatlar haqida 3 kalendar kun ichida bankni xabardor qilish;

6.5.5. bank tomonidan kredit berilishidan oldin ushbu shartnomaning 3-bo'limida ko'rsatilgan tartibga muvofiq dastlabki to'lovni amalga oshirish;

6.5.6. ushbu shartnoma doirasida kredit berishning to'liq davri mobaynida bankka tegishli tarzda rasmiylashtirilgan garov ob'ektining sug'urtalanganligi to'g'risidagi sug'urta polisini taqdim etish;

6.5.7. mobil ilovalar yoki to'lov tizimlari (Click, Payme va h.k.) orqali, shuningdek bank o'tkazmasi orqali yoki bank kassasi orqali asosiy qarzni muddatidan oldin to'lash uchun mablag' yuborilganda, Qarz oluvchi kreditni to'lash uchun hisob-kitob qilingan to'lovdan so'ng Bankni qarz to'langanligi to'g'risida xabardor qilishi shart;

6.5.8. ushbu shartnomaning amal qilish muddati mobaynida bankning yozma roziligisiz uchinchi shaxslar oldidagi muhim majburiyatlarni o'z zimmasiga olmaslik, ya'ni boshqa kreditorlardan kredit va qarzlarni olmaslik, boshqa shaxslarga kreditlar bermaslik, ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni o'z vaqtida bajarishga ta'sir etishi mumkin bo'lgan uchinchi shaxslarning kreditorlariga kafillik bermaslik;

6.5.9. kredit mablag'lari hisobidan sotib olingan avtotransport vositasiga transport vositalariga GBU o'rnatilganda hamda transport vositasi O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligining Davlat Yo'l Harakati Xavfsizligi Inspeksiyasida qayta ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng, Qarz oluvchi Bankga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar bilan avtotransport texnik pasportini taqdim etishi shart.

6.5.10. 5- bo'limiga muvofiq Bank tomonidan qilingan xarajatlarni qoplash.

7. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

7.1. Bank Qarz oluvchi/ birgalikda qarz oluvchidan kredit bo'yicha to'lanmagan mablag'larni qaytarishni, barchahisoblangan foizlarni to'lashni, shuningdek qarz oluvchi tomonidan bankka yetkazilgan barcha zararlarni qoplashni talab qilishga haqlidir.

7.2. Talab qilingan muddatdan boshlab 30 kun ichida qarz oluvchi/ birgalikda qarz oluvchi tomonidan talablar yetarli darajada bajarilmagan taqdirda, bank sudga murojaat qilish huquqiga ega.

7.3. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan tomonlarning javobgarlik choralari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq qo'llaniladi.

7.4. Qarz oluvchi garov shartnomasini, sug'urta shartnomasini va garov predmetining sug'urta polisini ushbu shartnomaning 5-bo'limida nazarda tutilgan muddatlarda va shartlarda o'z vaqtida rasmiylashtirmaganligi va /yoki taqdim etmaganlik uchun bank kechiktirilgan har bir kun uchun kafolat muddati davomida rasmiylashtirilmagan summadan 0,1% miqdorida, lekin ta'minot muddati davomida rasmiylashtirilmagan summaning 10 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima undirish huquqiga ega.

7.5. Bank qarz oluvchi/ birgalikda qarz oluvchi ning qarz miqdorining yarmidan kamini tashkil etuvchi summada foizlar, penyalar, neustoykalarni hisoblash va undirishga, shuningdek qarz oluvchining qarz miqdorini qaytarish maqsadida qarzdor tomonidan barcha zararlarni qoplashni va bank tomonidan amalga oshirilgan xarajatlarni qaytarilishini talab qilishga haqlidir.

7.6. Jarimani to'lash taraflarni o'ziga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishdan yoki qoidabuzarliklarni bartaraf etishdan ozod qilmaydi.

8. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

8.1. Ushbu kelishuvdan yoki u bilan bog'liq yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolarni tomonlar ikki tomonlama muzokaralar yo'li bilan hal qilishga intiladilar. Agar taraflar kelishuvga

Bank

Qarz oluvchi _____

Birgalikda qarz oluvchi _____

kelmasalar, ular o'rtasidagi nizo da'vogarning joylashgan joyidagi umumiy yurisdiksiya sudida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda hal qilinadi.

9. FORS-MAJOR

9.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun, agar ular ushbu shartnoma tuzilgandan so'ng yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlar natijasida yuzaga kelgan, tomonlar o'z vazifalarini to'g'ri bajarish uchun barcha mumkin bo'lgan va ularga bog'liq choralarni ko'rgan yoki oldini olish mumkin bo'lmagan holatlar (favqulodda vaziyatlar majmuasi) natijasida sodir bo'lganligini isbotlasalar, javobgar bo'lmaydilar. Favqulodda vaziyatlarga, xususan: harbiy harakatlar, tabiat kuchlarining ta'siri (zilzila, suv toshqini va boshqalar), pandemiya, davlat organlarining qarorlari kiradi.

9.2. Fors-major vaziyatlar yuzaga kelganida, taraflar bunday vaziyat yuzaga kelgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni mobaynida bu haqda bir-birlarini yozma ravishda xabardor qilishlari shart.

9.3. Fors-major vaziyatlar yuzaga kelganida ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati shunday holatlar va ularning oqibatlarini amal qilgan muddatga kechiktiriladi.

10. BOSHQA SHARTLAR

10.1. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan hollarda taraflar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

10.2. Ushbu shartnoma shartlarini o'zgartirish, shu jumladan uning muddatini uzaytirish tomonlarning qo'shimcha yozma kelishuvi bilan amalga oshiriladi, faqat ushbu shartnomaning 6.1.3-bandida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno. Qarz oluvchi/ birgalikda qarz oluvchi kredit shartnomasi shartlarini o'zgartirish uchun bankka murojaat qilgan hollarda, bu haqda ariza berilgan vaqtda qarz oluvchi/ birgalikda qarz oluvchi muddati o'tgan qarzga ega bo'lmashligi va uning aktivi «Standart» klassifikatsiyasi maqomiga egabo'lishi kerak.

10.3. Ushbu shartnoma taraflar tomonidan imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va taraflar ushbu shartnoma bo'yicha barcha majburiyatlarini to'liq bajargunlariga qadar amal qiladi.

10.4. Qarz oluvchi vafot etgan taqdirda uning barcha huquq va majburiyatlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vorislariga o'tadi.

10.5. Ushbu shartnoma ikki nusxada, bank uchun va qarz oluvchi/ birgalikda qarz oluvchi uchun bir nusxadan tuziladi. Ikkala nusxa ham bir xil yuridik kuchga ega.

10.6. Ushbu orqali qarz oluvchi/ birgalikda qarz oluvchi Bankka quyidagilarni amalga oshirish uchun shartsiz vashubhasiz huquq va rozilik beradi:

- a) Bank "Kredit axboroti tahliliy markazi" kredit byurosiga va/yoki Banklararo kredit byurosiga shartnoma shartlari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etishi (Kredit byurosiga va Garov reestriga);
- b) Qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchiga, uning turmush o'rtog'iga, shuningdek uning qarindoshlariga, qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchining ish beruvchilariga ushbu shartnoma bo'yicha qarzidor/birgalikda qarz oluvchining majburiyatlarini bajarish masalasida ularning telefon raqamlariga qo'ng'iroqlarni amalga oshirish, ma'lum bank manzillariga (rekvizitlariga) xatlar, elektron va SMS xabarlarini yuborish;
- c) Qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchi, uning turmush o'rtog'i, shuningdek uning qarindoshlari, qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchi ning ishberuvchilari bilan Qarz oluvchi/ birgalikda qarz oluvchining ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarishi masalasida muzokaralar (uchrashuvlar) o'tkazish.
- d) qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchining ish beruvchilardan uning olgan daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlarni so'rab olish, ularga qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchi ga tegishli bo'lgan mablag'larni (ish haqi, ustama haq va h.k.) kredit qarzini qaytarishga yo'naltirish talabi bilan murojaat qilish.

Bunda Bank tomonidan yuqoridagi harakatlarni amalga oshirish bank sirini oshkor qilish hisoblanmaydi.

Bank

Qarz oluvchi _____

Birgalikda qarz oluvchi _____

**11. TARAFLARNING YURIDIK MANZILLARI, BANK REKVIZITLARI
VAIMZOLARI:**

BANK
«TENGE BANK» ATB

QARZ OLUVCHI

FIO: _____

Manzil: 100007, O‘zbekiston Respublikasi,
Toshkent sh., YAshnabadtumani, Parkent k., 66 -
uy

Manzil: _____

MFO: 01176 **STIR:** 207297973
OKED: 64190
Tel: +(998)71 203-88-99
e-mail:info@tengebank.uz

Shaxsini tasdiqlovchi hujjat haqida ma'lumotlar:

Berilgan: _____ :

Lavozimi _____

sana _____y.

F.I.O. _____

STIR: _____

Imzo _____

Tel: +998 _____

e-mail: _____@_____.

plastik
karta raqami 8600 _____

M.P.

SHartnoma bilan tanishdim, unga roziman.

Qarz oluvchining to'liq FIO va imzosi

BIRGALIKDA QARZ OLUVCHI

FIO: _____

Manzil: _____

Shaxsini tasdiqlovchi hujjat haqida ma'lumotlar:

Berilgan: _____ :

_____ sana _
_____y.

STIR: _____

Tel: +998 _____

e-mail: _____@_____.

plastik
karta raqami 8600 _____

SHartnoma bilan tanishdim, unga roziman.

Qarz oluvchining to'liq FIO va imzosi

Bank

Qarz oluvchi _____

Birgalikda qarz oluvchi _____

Kreditni so‘ndirish jadvali / muddatli majburiyatlar

№	So‘ndirish sanasi	Kredit qoldig‘i	Asosiy qarzni so‘ndirish jadvali	Foizlarni to‘lashning prognoz jadvali	Jami to‘lov miqdori
1					
2					
3					
4					
5					
6					
7					
8					
9					
10					
11					
12					
13					
14					
15					
16					
17					
18					
19					
20					
21					
22					
23					
24					
25					
26					
27					
28					
29					
30					
31					
32					
33					
34					
35					
36					
37					
38					
39					
40					
41					
42					
43					
44					
45					
46					
47					
48					
Jami:					

«BANK»

Lavozimi _____

F.I.O. _____

Imzo _____

M.O‘.

«Qarz oluvchi»

F.I.O. _____

Imzo _____

creditni so‘ndirish uchun h/r № _____

Kredit ID raqami: _____